Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishla...

ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

qaytarilishini kafolatlovchi qonunchilik bazasini rivojlantirish, takomillashtirish, ishlab chiqish.

2. Aholining turmush darajasini yaxshilash, bu, birinchi navbatda, davlatning samarali iqtisodiy siyosatiga asoslanadi. Bunday siyosat aholining jamg‘armalarini yanada ko‘paytirishga, ularning tarkibini o‘zgartirishga olib keladi va kredit tashkilotlari resurslarini qiymat va muddat bo‘yicha muvozanatlashdagi qiyinchiliklarni bartaraf etadi, pirovardida iqtisodiyotni investitsiyalash bo‘yicha ko‘plab vazifalarni hal qiladi va hududlarda banklar tomonidan jalb qilingan pul mablag‘lari o‘sha hududlarning manfaatlari yo‘lida ishlaydigan mexanizmni yaratadi.

3. Bankning samarali depozit siyosatini takomillashtirish, buni yuqori korporativ boshqaruv, bank tomonidan qonunchilik jihatlariga rioya qilish, kasbiy etika tamoyillariga to‘liq rioya qilish orqali amalga oshiriladi.

Ushbu chora-tadbirlar aholining jamg‘armalarini jamg‘armalarga yo‘naltirishga va shunga mos ravishda iqtisodiyotga sarmoya kiritishga yordam beradi va bank xizmatlari bozori jamg‘armalarni investitsiyalarga aylantirish mexanizmi funksiyalarini bajaradi. Omonat mablag‘lari banklar va mijozlar uchun ham foyda keltiradigan muhim moliyaviy instrument bo‘lib qoladi. Innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarni kengaytirish orqali banklar aholi omonatlarini samarali jalb qilish va iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash imkoniyatini oshirishi mumkin.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, banklarda aholi omonat mablag‘larini zamonaviy usullar orqali jalb qilish mijozlarga qulaylik va tezkor xizmatlarni taklif qilish bilan birga, bank sektorining samaradorligini oshirish imkoniyatini ham taqdim etadi. Mobil ilovalar, onlayn platformalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali omonatchilarni jalb qilish banklarning mijozlar uchun innovatsion xizmatlar ko‘rsatish borasidagi ustunliklarini oshiradi. O‘zbekiston banklari ushbu tajribalarni o‘z amaliyotlariga joriy etib, aholi omonatlarini ko‘paytirishga erishmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Smith, J. (2021). Banking in the Digital Era. New York: Financial Publishing.
2. Thompson, S. (2022). Emerging Trends in Financial Services. London: Global Economics.
3. Norboyeva D. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BANK TIZIMINI ISLOH QILISHNING YO‘LLARI // Экономика и социум. 2023. №11 (114)-1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-iqtisodiyot-sharoitida-bank-tizimini-isloh-qilishning-yo-llari (дата обращения: 11.11.2024).
4. Кудбиев, Н. Т. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ ПРЕДПРИЯТИИ С КОММЕРЧЕСКИМИ БАНКАМИ. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES, 3(10), 87-93.
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2023). "O‘zbekiston banklaridagi omonat mablag‘lari statistikasi". cbu.uz

IQTISODIY O‘SISH SURATLARINI TA’MINLASHDA TASHQI SAVDONING O‘RNI VA AHAMIYATI

Sharipov Narzullo G‘ulomovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasining katta o‘qituvchisi, E-mail: gavhar9369@gmail.com

Published: 23.12.2024

Cite this article: Sharipov Narzullo G‘ulomovich, Erkinova Munavvar Zafarovna (2024). Iqtisodiy o‘sish suratlarini ta’minlashda tashqi savdoning o‘rni va ahamiyati. Emro Science and Education, 1(4). https://journal.emro.uz/public/maqola/939

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Erkinova Munavvar Zafarovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 1-bosqich magistranti, E-mail:
gavhar9369@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda xalqaro iqtisodiyotda tashqi savdoning mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni, uning iqtisodiy o‘zgarishlarga ta’siri, tashqi savdoning mamlakatlar iqtisodiyotidagi o‘rni, tashqi savdoni amalga oshirishdagi muammolar, tashqi savdoni amalga oshirishning zamonaviy usullari hamda ularni amalda qo‘llashga doir ma’lumotlar keltirilgan. Tashqi savdo munosabatlarini chuqurlashtirish, tashqi savdoni rivojlantirish orqali mamlakatlarning integratsiyasi, ularning ochiqligini kengaytirish, milliy iqtisodiyotlarning yaqinlashishi va o‘zaro bog‘liqligi o‘rganish uchun alohida ob'ektni tashkil etadi. Bu tashqi savdoning rolini va uning mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini o‘rganishdan iborat bo‘lgan ushbu tezisni yozishning maqsadini belgilaydi. Tadqiqotda tahlillar asosida tegishli xulosa va takliflar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Tashqi savdo, eksport, import, global bozor, savdo balans, jahon iqtisodiyoti, investitsiya, savdo siyosati, tariflar, erkin savdo, savdo cheklovlari, iqtisodiy rivojlanish, savdo, strategiyasil investitsiyalar


Mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishi uchun xalqaro iqtisodiyot o‘z o‘rniga va ahamiyati egadir. Xalqaro iqtisodiyot har bir mamlakat o‘z iqtisodiyotini teng manfaatli xalqaro hamkorlik va jahon bozoriga chuqur integratsiyalashuvni ta’minlash asosida rivojlantirishga zamin yaratadi. Xalqaro iqtisodiyot xalqaro savdo, ishlab chiqarish omillarining harakati va moliyalashtirish, xalqaro iqtisodiy siyosatni shakllantirishda turli xil davlatlarga tegishli xo‘jalik subyektlarining o‘zaro harakatlari qonuniyatlarini o‘z ichiga oladi. Xalqaro iqtisodiyotda markaziy o‘rinni tashqi savdo, savdo siyosati, valyuta bozorlar va to‘lov balansining tahlili egallaydi. Tashqi savdo, savdo siyosati va ishlab chiqarish omillarini bitta mamlakatdan ikkinchisiga ko‘chib o‘tishi xalqaro iqtisodiyotning mikroiqtisodiy qismini tashkil etadi.

Mamlakatning xalqaro integratsiya jarayonlaridagi ishtiroki va tashqi bozorlarga chiqishi milliy iqtisodiyotning sog‘lomligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatganligi sababli, tashqi savdo iqtisodiy tadqiqotlarning o‘ziga xos yo‘nalishi hisoblanadi. Mamlakatning tashqi savdodagi ishtiroki va undan manfaatdorligi eksport va import hajmiga ta'sir qiluvchi YaIMning o‘sishiga olib kealdi. Eksport samaradorligi darajasini oshirish jahon bozorlarida raqobatlashish, investitsiyalarni rag‘batlantirishga hissa qo‘shadigan daromadlarni olish, mamlakatdagi iqtisodiy harakatga ijobiy ta’sirni oshirish va umuman iqtisodiy o‘sishni oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Tashqi savdo kompaniyalarga o‘z mahsulotlarini namoyish qilish uchun mavjud bozorlar sonini ko‘paytiradi. Bu esa mahsulotni mahalliy va xalqaro miqyosda ishlab chiqarish va sotish jarayonini yaxshilaydi. Chunki biznesning uzluksiz o‘sishi, albatta, iqtisodiy taraqqiyotning yuksalishiga olib keladi.

Davlatlarning tashqi savdo sohasidagi asosiy vazifalari mamlakat ichki bozorida tovarlarni ishlab chiqarish va yetkazib berish jarayonida mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini yengillashtirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va shu kabi tashqi ishlab chiqaruvchilar mahalliy ishlab chiqaruvchilarning manfaatlariga zarar yetkazmasliklari hisoblanadi. Bozor, shuningdek eksport uchun mahsulot ishlab chiqarishda mahalliy ishlab chiqaruvchilarga yordam berish ham asosiy maqsadlaridan biridir.

Tashqi savdo mamlakatlarning eksport va import hajmining oshishiga ta’sir qiladi va mamlakat iqtisodiyotni rivojlantirishda salmoqli hissa qo‘shadi. Tashqi savdo aylanmasini rivojlangan mamlakatlardan biri bo‘lgan Buyuk Britaniya misolida ko‘radigan bo‘lsak, 2023 yilda Buyuk Britaniyaning tovar va xizmatlar eksporti 865

milliard funt sterlingni, import esa 898 milliard funt sterlingni tashkil etdi. 2023 yilda Buyuk Britaniyaning tovar va xizmatlar eksportining 41 foizi va importining 52 foizi Yevropa Ittifoqi hissasiga to‘g‘ri keldi (1-rasm).



1-rasm. Buyuk Britaniyaning savdo ko‘rsatkichlari va to‘lov balansi bo‘yicha so‘nggi statistik ma'lumotlar[1]

Buyuk Britaniya odatda eksport qilishdan ko‘proq import qiladi, ya'ni u savdo kamomadiga ega. Tovarlar savdosidagi 187 milliard funt sterlinglik kamomad 2023-yilda xizmatlar savdosi bo‘yicha 153 milliard funt sterlinglik profitsit bilan qoplandi. Umumiy savdo kamomadi 2023-yilda 33 milliard funt sterlingni tashkil etdi. Buyuk Britaniyaning Yevropa Ittifoqi bilan savdo kamomadi 109 milliard funt sterlingni tashkil etdi. 2023-yilda va Yevropa Ittifoqiga a'zo bo‘lmagan davlatlar bilan savdo balansi 75 milliard funt sterlingni tashkil etdi. Barcha mamlakatlar bilan savdo taqchilligi 2024-yil yanvarigacha bo‘lgan uch oy ichida oldingi uch oyga nisbatan 9,5 milliard funt sterlinggacha kamaydi. Bu davrda naqd hisobda eksport 1,9 foizga, import esa 1,8 foizga kamaydi.

Mamlakatimizda bu borada keyingi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag‘batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta’minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2023-yil yanvar-oktabr oylarida O‘zbekistonning savdo aylanmasi 51,0 mlrd. AQSH dollariga yetdi va 2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 10,3 mlrd. AQSH dollariga yoki 25,2 % ga ko‘paydi (3-rasm):

1-jadval

2022-2023-yilda O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi[2]

Yillar	Tashqi savdo aylanmasi (TSA)	Eksport	Import	Saldo
2022	44717,9	20470,2	30503,6	-9014,0

[1] https://commonslibrary.parliament.uk saytidagi ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

[2] O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy stat.uz saytidagi ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

2023	50973,8	1585 2,0	2486 5,9	- 10033,3
Ko‘satkichlar farqi (%)	25,2%	29,1 %	22,7 %	
TSAdagi ulushi		40,2	59,8	

Tashqi savdo aylanmasida eksport hajmi 20470,2 mln. AQSH dollariga (2022-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 29,1 % ga ko‘paydi) va import hajmi 30503,6 mln. AQSH dollariga (22,7 % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida -10033,3 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

Mamalakat tashqi savdo faoliyatini doimiy ravishda rivojlantirib boorish kerak. Buning davr talabiga mos keladigan va tashqi savdoni rivojlantiradigan zamonaviy usullardan foydalanish kerak. Tashqi savdoni rivojlantiradigan zamonaviy usullari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Eksport talabiga mos keladigan mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish. Bunda mamlakat yoki korxona o‘zi ishlab chiqarayotgan mahsulotini yoki xizmatini eksport qiladigan bozor talabiga moslashi kerak bo‘ladi, ya’ni mijozlar talabiga mos keladigan mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish kerak bo‘ladi.
2. Zamonaviy marketing tadqiqotlardan unumli foydalanishi kerak. Tashqi savdo uchun marketingl strategiyani yaratish keng qamrovli bozor tadqiqotlarini o‘tkazishni anglatadi.
3. Logistika ta'minot zanjirini rivojlantirish. Logistika ta'minot zanjiri masalalari tashqi savdoga kirishda katta ahamiyat kasb etadi. Tovarlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri bir mamlakatdan eksport qilish yoki chet ellik ishlab chiqaruvchilarga tovarlarni yangi geografik joylarga yetkazib berishni buyurish, iloji boricha kam zaif tomonlari bilan mustahkam ta'minot zanjirini qurish kerak bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan tashqi savdoni rivojlantiradigan zamonaviy usullardan foydalaniladigan bo‘lsa, mamlakatda tashqi savdo hajmi, ya’ni eksport va import hajmi oshadi va bunda tashqari ko‘plab hamkorlar topishga yordam beradi.

Xuloasa qiladigan bo‘lsak, jahon bozorida ishtirok etayotgan mamlakatlarning so’nggi yillardagi tashqi savdo siyosatida tashqi savdoni tartibga solish dastak va vositalaridan foydalanish tendentsiyalari ko’zga yaqqol tashlanadi. Jahon savdosi erkinlashib borishi o’rniga deyarli barcha davlatlar an’anaviy qabul qilingan tarif va notarif usullardan tashqari boshqa turdagi dastak va vositalardan o’zlarining ichki bozorlarini himoyalash yoki tashqi bozorda faoliyat ko’rsatayotgan eksportchilarini qo’llab-quvvatlash maqsadida qo’llashga harakat qilmoqdalar. Ammo, jahon savdo tashkiloti bunday protektsionistik harakatlar va urinishlarga zid o’laroq tovar, mahsulot, ish va xizmatlarning erkin harakatini ta’minlashga qaratilgan siyosatni davom ettirmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Isayev Q.A. (2021) Xalqaro iqtisodiyot. Darslik -T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» - 376 bet.
2. Yuldasheva G. (2019) Xalqaro iqtisodiy huquq. Darslik. Toshkent: TDYuU nashriyoti, - 186 bet.
3. Yo‘ldoshev Z. , Xalilova X. (2013) Milliy va jahon iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, - 286 bet.
4. Ван И. (2022) Современное состояние и тенденции развития внешней торговли россии на фоне электронной торговли // Финансовые рынки и банки. – №12.
5. Trade Map (2023) // International Trade Centre.

6. www.stat.uz O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy sayti
7. https://commonslibrary.parliament.uk Buyuk Britaniya parlamentining Quyi palatasi (House of Commons) rasmiy sayti

QO`SHILGAN QIYMAT SOLIG`I TO`LOVCHILAR SONI VA BYUDJETGA TUSHUMLAR SAMARADORLIK KO`RSATKICHLARNING TAXLILI

Urazmatov Jonibek Musurmanovich
Guliston davlat universiteti dotsenti v.b (PhD)
jonibei1186@gmail.com

Annotatsiya. Jahonda keyingi yillarda qo‘shilgan qiymat solig‘ini to`lovchilar soni va byudjetga tushumlar samaradorligi masalalariga qaratilgan ilmiy izlanish hamda maqolalarga alohida e'tibor berilmoqda. Byudjet-soliq siyosatining o‘zaro uyg‘unligini ta'minlash, soliq ma'murchiligini bugungi kun talablariga moslashtirish, qo‘shilgan qiymat solig‘ining byudjet daromadlarini shallanishidagi o‘rnini kuchaytirish, «uzluksiz qo‘shilgan qiymat zanjiri»ni vujudga keltirish, qo`shilgan qiymat solig`ini to`lovchilar sonining oshishi yoki kamayishi, soliq tushumlarining samaradorlik ko`rsatkichlari kabi masalalar ushbu maqolaning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

**Kalit so`zlar.** Qo`shilgan qiymat solig`ini to`lovchilar sonining oshishi, byudjet daromadlari, tushumlarining samaradorlik ko`rsatkichlari, soliq siyosatining iqtisodiy samaradorligi, QQSdan tushumlarning O‘zbekiston Respublikasi, QQSdan tushumlar davlat byudjeti daromadlari shakllanishi.

Iqtisodiyotning erkinlashuvi jarayonida, qo‘shilgan qiymat solig‘i to`lovchilar soni oshishi yoki kamayishi, byudjetga tushumlarning samaradorligini ta`minlashni tashkil etishda soliq salohiyatini oshirish muammolarining keskinlashuvini yuzaga keladi. Bugungi kunda ko‘plab munozaralarga sabab bo‘layotgan soliq tizimi islohining alohida bir yo‘nalishi sifatida qo‘shilgan qiymat solig‘i soliq to`lovchilar soni va byudjetga tushumlar samaradorligini kompleks-maqsadli dasturi va prognozini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash bo‘yicha soliq organlari faoliyatidagi eng ustuvor vazifalar, soliq to‘lovchilar bilan manzilli ishlashni tashkil qilish orqali soliq bazasini kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar bugun jadallik bilan amalga oshirilmoqda va buning natijasida byudjet soliq tushumlarining o`z vaqtida tushishi ta`minlanmoqda.

O`zbekiston Respublikasi soliq qo`mitasining ma`lumotlariga qaraganda qo`shilgan qiymat solig`i to`lovchilar sonini 2023 yil mos davriga nisbatan 2024 yilda hududlarda soliq to`lovchilar soni o`sidhini kuzatishimiz mumkin.

(1-rasm) [3]

[3] O`zbekiston Respublikasi soliq qo`mitasi.